



KIBERXAFSIZLIK KELAJAK AVLOD UCHUN QACHALIK MUHIM

Oydin Berdiyeva Toxirovna

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalari
universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7559607>

ARTICLE INFO

Received: 13th January 2023

Accepted: 23th January 2023

Online: 23th January 2023

KEY WORDS

Sstrategiyalar, xaf-xatar,
kiberxafsizlik, kiber olami,
xujumchi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungu kundagi saytlarda turli xil xujumlar ortib borilishini oldini olish xaqda qisqacha tushuntirib berilgan, saytlarda ma'lumotlarni saqlab turli hil xurujlarni oldini olish xaqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Kirish. Xozirgi rivojlanayotgan zamonda, hujum qilishning o'ziga xos strategiyalari, usullari va ko'rinishlarining paydo bo'layotganligini, ularning ta'sir qilish doiralarining kengayishini, jinoyatchilarning motivasiyasi oshayotganligini, hamda xavf-xatarlarni aniqlashning takomillashgan vositalarining paydo bo'layotgaligi kabi xolatlarni ko'rish mumkin. Aytilgan gaplarni xisobga olgan xolda, biz bu yangi yuqori shakllangan xavf-xatar guruhlarining vujudga kelishi natijasida, axborot xavfsizligi sohasidagi ba'zi o'zgarishlarga iqror bo'lishimiz kerak. Yangi tahdidlarni paydo bo'lishi doirasini kengayishi va ta'sir qilish extimolligining ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Kiberxafsizlik kiber olamida ma'lumotlar almashinuvi kiber xafsizlik diyildadi. Bugungi kunda dasturchilar qanchalik muhim bo'lsa kiberxafsizlik xam biz uchun juda muhim. Misol uchun ba'zi saytlarda juda ko'p pul tikildi va ma'lumotlar ko'p bo'lsa dasturchilar ko'p bolsa, bu saytdan pul topaman dib ish bolsa sayt ishdan chiqarildi lekin bu saytdan xekkerlar tarafidan qayta tiklanish mumkin lekin barcha ma'lumotlar o'chib ketadi .Bu degani ma'lum bir sayt sindi degan .Saytlarda davlat saytlarda shu sababdan bugungi kunga ko'plab ehtiyoj talab etilmoqda. Mening shahsiy fikrim kiberxafsizlikni dasturchilar bilan birgalikda faoliyat olib borish zarur.

Kiberxafsizlik xodimlari satlarda dasturchilar yaratgan ma'lumotlar ba'zasini oldindan bilib saytlarni qulashdan ya'ni ma'lumotlar ochib keishlikni oldini olish degani.¹Kiberxavfsizlik yoki axborot xavfsizligida risklar salbiy ko'rinishda qaraladi. Hujumchi kabi fikrlash - bo'lishi mumkin bo'lgan xavfni oldini olish uchun qonuniy foydalanuvchini hujumchi kabi fikrlash jarayoni. Tizimli fikrlash - kafolatlangan amallarni ta'minlash uchun ijtimoiy va texnik cheklovlarning o'zaro ta'sirini hisobga oladigan fikrlash jarayoni.

²Bundan tashqari quyidagi tushunchalar ham kiberxavfsizlik sohasini chuqur o'rganishda muhim hisoblanadi.

Axborot xavfsizligi - axborotning holati bo'lib, unga binoan axborotga tasodifan yoki atayin ruxsatsiz ta'sir etishga yoki ruxsatsiz undan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Yoki, axborotni

¹ Kiberxafsizlik asoslari 9-bet Toshkent 2020-yil

² Kiberxafsizlik asoslari 10-bet Toshkent202-yil



texnik vositalar yordamida ishlanishida uning maxfiylik (konfidensiallik), yaxlitlik va foydalanuvchanlik kabi xarakteristikalarini (xususiyatlarini) saqlanishini ta'minlovchi axborotning himoyalash sathi holatidir.

Kiberxavfsizlik bu – hozirgi vaqtlargacha mavjud bo'lmagan yoki ularni haqiqatdan uzoq deb xisoblangan, ular bizning e'tiborimizni olishi mumkin deb o'ylamagan kibertahdidlarni oldini olishga yo'naltirilgan qarashlarning yig'indisidir.

³Kiberxavfsizlik qoidalarini kuchaytirish sohasidagi tadqiqotlar

Olimlar tobora ko'proq e'tibor berayotgan fan sifatida kiberxavfsizlik sohasidagi tendensiyalardan biri – bu jamiyatning kiberxavfsizlikka oid mavjud normativ talablarning doimiy yaxshilanishiga bo'lgan ehtiyojidir. Kiberxavfsizlikning jo'shqin va jadal xarakteri biror foyda keltirish uchun o'ta sekin va qo'pol sanaladigan tartibga solishni ortda qoldiradi va amalda, qoidalarga rioya etish madaniyatini va yolg'on xavfsizlik hissini yuzaga keltirib, xavfsizlikka to'sqinlik qilishi mumkin.

Shu bilan birga, Cybersecurity Ventures tahliliy guruhining tadqiqotlari ko'rsatishicha, 2021 yilda kiberjinoyatlar jahon iqtisodiyotiga 6 trillion dollarga tushadi, bu Rossiya kabi mamlakatlar iqtisodiyotiga teng.1 Varonis kompaniyasi tahlilchilari va olimlari 2022 yilda kiberxavfsizlikka xarajatlar 133,7 mlrd AQSh dollariga teng bo'lishini hisoblab chiqdilar. Kompaniyalar rahbarlarining 70 foizidan ko'prog'i kiberxavfsizlik masalalarini olimlar va ekspertlarni jalb qilgan holda ko'proq o'rganishlari kerakligini qayd etadilar. Ayrim ekspertlar 2020 yilda yanada kengroq qamrovli umumjahon ma'lumotlarni tartibga solish tizimi kuchga kirishi mumkinligini bashorat qilmoqdalar. Masalan, hozirdayoq AQSh va yel hukumatlari kiberxavfsizligi sohasida yangi qonun me'yorlarini joriy etmoqdalar. Binobarin, ilm-fanda bizni huquqshunoslik, siyosatshunoslik va kibernetika kabi yo'nalishlar tutashuv nuqtasida tadqiqotlar o'sishi kutmoqda.

⁴Ma'lumotlarni g'arazli boshqarishga bag'ishlangan ilmiy ishlar.Jahon raqamlashuvi sharoitida ma'lumotlarni o'g'irlash ma'lumotlardan g'arazli foydalanishga aylanmoqda. Jinoyatchilar va jinoiy hamjamiyatlar ma'lumotlarni o'g'irlash va odamlar shaxsiy ma'lumotlarni saqlovchi serverlarni buzish borasidagi o'z uslubiyotlarini muntazam yaxshilab boradilar. Demak, mutaxassislariga turfa ssenariylarni modellashtirish va ma'lumotlarni himoyalashning yangi vositalarini yaratish imkonini beruvchi sifatli tahliliy va amaliy tadqiqotlarga talab faqat ortib boradi. Javelin Strategy & Research kompaniyasi tadqiqotlari ko'rsatishicha, 2019 yilda AQShda kredit kartalar o'g'irlanishi bilan bog'liq 245 000 dan ortiq jinoyat qayd etildi, bu ma'lumotlarni o'g'irlash bilan bog'liq jinoyatlar barcha turlarining 45,7 foizini tashkil qiladi². Binobarin, ma'lumotlarni himoyalash bilan bog'liq tadqiqotlar yetishmovchiligi odamlarda ma'lumotlar butligiga shubha uyg'otib, alohida shaxslar yoki guruhlariga uzoq muddatli obro'ga putur yetkazishi mumkin bo'ladi.

⁵Bu esa axborot kommunikatsiya va texnologiyalari tizimini zamonaviy kibertahdidlardan himoya qilish, turli darajadagi tizimlar uchun kiberxavfsizlik bo'yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, mazkur sohada davlat organlari, korxonalar va tashkilotlarning

³ Qvan jurnal 11 yanvar 2023 yil

⁴ Qvan jurnal 11 yanvar 2023 yil

⁵ Zamin.uz 11-yanvar 2023-yil



huquqlari va majburiyatlarini belgilash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish kabilarni amalga oshirish orqali belgilanadi. Bu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni unifikatsiyalash orqali kiberxavfsizlikni ta'minlashni takomillashtirish mumkin. Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar zahirida xalqimizga qulayliklar yaratish maqsadi yotibdi. Kiberxavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilishi raqamli imkoniyatlardan ishonchli va xavfsiz tarzda foydalanishga asos bo'ladi.

Xulosa. Xozirgi kunda ijtimoiy tarmoq xayotimizni ajralmas qismi bo'lib qolmoqda shunday ekan yoshlarning ijtimoiy tarmoqda ehtiyoj ortib bormoqda barcha ma'lumotlar bazasi saytlarda,elektron poshtada va boshqa joylarda saqlab joylaymiz, saqlashda ehtiyotkorlik bo'lishlikni kun satin turli xujumlar soni ko'payib bormoqda shunday ekan barchani ogoh bo'lishimiz zarur.

References:

1. Kiberxavfsizlik asoslari Toshkent 2020-yil
2. Qvan jurnal 11 yanvar 2023 yil
3. Zamin.uz 11-yanvar 2023-yil